

# Concepts of Professional Competence and Competence its Content and Essence

Zoxid Shukurullayevich Alimardonov<sup>1</sup>, Sanjar Xazratqulovich Isakov<sup>2</sup>

**Annotation:** This article discusses such issues as the formation of professional competence and its essence, the role and significance of causal competence and competence essence in preparation for professional activity, the formation of general academic and specialized subject knowledge, skills and abilities of future officers through fire training, the mechanism of professional development of students based on it and an integrative-differential approach to it.

**Keywords:** future officers, competence, competence, professional competence, the concept of competence, the concept of competence.

XXI asrda kasb ta'limi mazmunini yangilashning kontseptual qoidalaridan biri kompetentlik nuqtai nazaridan yondashuv hisoblanadi. Uni amalda joriy etish esa ta'lim mazmuni, metod va texnologiyasiga yangicha yondashishga olib keladi.

Ta'lim mazmunini yangilashning asosiy birliklaridan biri kompetentlik tushunchasidir. U shaxsning integrativ xususiyatini, boshqacha aytganda, bo'lajak mutaxassisning shaxsiy sifatlari – bilimi, ko'nikmalari, amaliy tajribasi, qobiliyatlari, qadriyat yo'nalishlarini ifoda etadi. Kompetentlik shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta'minlaydi va kuchaytiradi.

Muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarinisafarbar etamiz”[1], degan fikrlari ham mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e'tibordan holi emas. Shunday ekan biz hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni zamonaviy

yondashuvlar asosida tashkil qilishimiz oldimizdagi yuksak vazifalardan biridir.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kasbiy o'zini o'zi boshqarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining eng to'liq psixologik shakllari, kasbiy kompetentlikning rivojlanish xususiyatlari E.F.Zeer[2] tomonidan o'rganilgan.

T.M.Sorokinaning tadqiqotlarida o'qituvchining kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi sifatida talqin etiladi. Uning yondashuviga ko'ra o'qituvchilik kompetentsiyasi o'qituvchining pedagogik faoliyatining asosi bo'lgan professionallikning bosqichlaridan biri hisoblanadi[3].

V.N.Vvedenskiyning fikricha, “kasbiy kompetentsiya” tushunchasi tarkibining kengligi, “professionallik”, “malaka”, “kasbiy malakalar” kabi keng tarqalgan tushunchalarni birlashtiradigan integral xususiyatlar bilan ajralib turadi. Biroq, u kontseptsiya bilan birgalikda ko'rib chiqilayotgan kontseptsiyani identifikatsiyalash hollari hali ham tez-tez “kompetentlik”dir. Kompetentlik - bu shaxsiy xususiyatga ega, va malakali professional yoki funktsional xususiyatlar majmuasidir[4].

M.I.Lukyanova o'qituvchining psixologik - pedagogik salohiyati asosida pedagogik faoliyat uchun yuqori darajadagi professional tayyorgarlik va o'quv jarayonida talabalar bilan samarali o'zaro munosabatlarga ega bo'lgan shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini tushunadi. Psixologik va pedagogik kompetentsiya tarkibiy qismi sifatida u psixologik va pedagogik yo'nalishlarning bloklarini ko'rib chiqadi[5].

A.V.Xutorskoy “kompetentsiya” va “kompetentlik” tushunchalarini “sinonim ishlatilgan” tushunchalari orasidagi farqni ko'rsatadi. Kompetentsiya - shaxsning o'zaro bog'liq xususiyatlarini (bilim, ko'nikma, faoliyat metodikasi), ma'lum mavzular va jarayonlar uchun belgilanadigan va ularga nisbatan sifat jihatidan samarali ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan kompleks[6].

“**Kompetentlik**” tushunchasining mohiyati. Inglizcha “**competence**” tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma'nosini ifodalaydi. Mazmuni esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namayon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi.

**Kasbiy kompetentlik** - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim va malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya

<sup>1</sup> P.f.b.f.d (PhD), associate professor

<sup>2</sup> Independent researcher

mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni

qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

### **Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:**

- ✓ Murakkab jarayonlarda;
- ✓ Noaniq vazifalarni bajarishda;
- ✓ Bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- ✓ Kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

**Kasbiy kompetentlik sifatleri.** Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:

1. **Ijtimoiy kompetentlik** - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.
2. **Maxsus (kasbiy) kompetentlik** - kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko'nikma va malakalarni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.

Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

- **psixologik kompetentlik**, pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;
  - **metodik kompetentlik** - pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;
  - **informatsion kompetentlik** - axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;
  - **kreativ kompetentlik** - pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;
  - **innovatsion kompetentlik** - pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;
  - **kommunikativ kompetentlik** - ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.
3. **Shaxsiy kompetentlik** - izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.
  4. **Texnologik kompetentlik** - kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.
  5. **Ekstremal kompetentlik** - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik[7].

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

O'z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi:

- ✓ Maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish);
- ✓ Ijtimoiy kompetentlik (qo'shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil etish);
- ✓ Shaxsiy kompetentlik (o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon etish);
- ✓ Individual kompetentlik (o'z o'zini boshqarish, kasbiy rivojlantirish va yangiliklar yaratish).

**Pedagogning kasbiy kompetentligi.** Respublikamizda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos jihatlari o'ranilgan bo'lib, ular orasida N.A.Muslimov[8] tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizini quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi.

- Maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish);
- Ijtimoiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni hamkorlikda tashkil etish, ijtimoiy mas'ullik);

- Autokompetentlik (oʻzini ijtimoiy-kasbiy rivojlantira olish);
- Ekstremal kasbiy kompetentlik (kutilmagan vaziyatlarda ishlay olish).

Kasbiy - pedagogik kompetentlikka ega boʻlishda oʻz ustida ishlash, oʻz-oʻzini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Oʻz-oʻzini rivojlantirish vazifalari oʻzini oʻzi tahlil qilish va oʻzini oʻzi baholash orqali aniqlanadi.

Tarixiy jihatdan taʼlim tizimida kompetentlik tushunchasining kirib kelishi quyidagi bosqichlarga ajratiladi:

Birinchi bosqichda (1960-1970 yillar) - ilmiy doiralar va muomalaga «kompetentsiya» va «kompetentlik» tushunchalari kirib keldi va ularning amal qilish qoidalari, qoʻllanilish xususiyatlari belgilandi. Birinchi bor «kompetentsiya» atamasi 1965 yilda Massachusetts universiteti oʻqituvchisi Naum Xomskiy tomonidan ishlatiladi. Bu soʻzning semantik chegarasi bugungi kunda juda keng boʻlib, aslida bu soʻz «kelishuv», «kelishuvchanlik», «biror bir narsaga mos kelish», «mos boʻlish» maʼnolarini anglatadi. Bugungi kunda mazkur soʻz koʻproq «faoliyat olib borishning universal, yaʼni hamma uchun mos boʻlgan umumiy xususiyatlari va talablari majmuini» anglatadi. Mazkur kompetentsiyalar turli mutaxassisliklar doirasidagi dolzarb, yechilishi zarur vazifalarni bajarishga yoʻnaltiriladi. **Naum Xomskiy** (inglizchasi), oʻzi lingvist olim va psixolog boʻlganligi uchun, «Sintaktik strukturalar» kitobida bu istilohni til borasidagi intuitiv bilim sifatida talqin qiladi. Bu intuitivlik individga ona tilini oʻzlashtirishda asos boʻlib xizmat qiladi va toʻgʻri jumalarni notoʻgʻri jumalardan ajratish imkoniyatini yaratadi. Binobarin, **Naum Xomskiy** tasnifida «kompetentsiya» tilga nisbat berilgan xususiyatlar majmui boʻlib, tilning lingvistik mohiyatini anglash uchun zarur boʻlgan individ xislatlari majmuini anglatadi.

Ikkinchi bosqichda (1970-1990 yillar) «**kompetentsiya**» istilohining qoʻllanilish doirasi keskin oʻsadi, mazkur soʻz maxsus istilohga aylanadi va biror bir sohaga oid xususiyatlar jamlanmasini anglati boshlaydi, hamda til nazariyasi, menejment, kommunikatsiyalarni tashkil qilishda qoʻllaniladi. 1984 yili J.Raven[9] (inglizchasi) «Competence in modern society: Its Identification, Development and Release» kitobi nashr boʻladi. J.Raven oʻziga ilmiy vazifa qilib, zamonaviy jamiyat nuqtai nazaridan mutaxassislik kompetentsiyasi nimaga teng degan masalani qoʻyadi va effektivlikni taʼminlovchi kompetentsiyaning 37 ta komponentini ajratib, koʻrsatib beradi va ularni «motivatsion qobiliyat» deb taʼkidlaydi. Maʼlumki, 1988 yilda Boloniya universitetning 900 yilligi nishonlash tadbirlarida Evropaning 80 ta universiteti rektorlari Magna Charta Universitarum (Universitetlarning buyuk Xartiyasi) hujjatiga imzo qoʻyishdi. Bu hodisa Evropa taʼlim tizimi tarixidagi «Boloniya jarayoni» deb nomlangan eng yirik loyihaning boshlanishini boʻldi. Keyinchalik Evropada yaxlit va hamma uchun teng imkoniyatlar yaratuvchi «Boloniya deklaratsiyasi» 19 iyun 1999 yilda imzolandi va uning maqsadi oliy taʼlimning Evropa mamlakalarga roʻyagona va yaxlit makonini yaratishdan iborat qilib belgilandi.

Kompetentsiya nuqtai nazaridan esa, Boloniya jarayoni davomida Evropa mehnat bozorlarida ish beruvchilar tomonidan anʼanaviy «bilim» paradigmasi «faoliyat», yaʼni «kompetentsiya» paradigmasi bilan toʻldirildi, buning natijasida taʼlim modellarida kadr tayyorlashning maqsadi mutaxassisning kvalimetrik talablari miqyosida «kompetentsiya» tushunchasini eng muhim xususiyatlardan biri darajasiga koʻtardi.

Uchinchi bosqichda (1990-2001 yillar) butun dunyo, MHDda, xususan Rossiyada «Boloniya deklaratsiyasi» ijro va taʼlim taraqqiyoti uchun qabul qilindi, taʼlim islohotlarining maqsadlaridan biri mutaxassisning kvalimetrik koʻrsatgichlarining bosh xususiyati qilib, aynan kabi «kompetentlik» masalasi qoʻyila boshladi. Bu davrda Rossiyaning qator olimlari, xususan A.K.Markova[10], E.F.Zeera, A.V.Xutorskiy va boshqalar kasbiy kompetentlik tushunchasini psixologiya va pedagogika nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy va metodik jihatdan ishlab chiqdilar.

«**Kompetentsiya**» tushunchasi koʻpgina xorijiy va mahalliy adabiyotlarda turli soha vakillari tomonidan oʻz sohasi yoʻnalishidan kelib chiqib turlicha talqin etiladi. Ammo bu atamaning asosi yagona mazmun, yaʼni bilim, malaka va koʻnikma kabi tushunchalarning shaxsda mujassamligi va ularni turli vaziyatlarda toʻgʻri qoʻllay olish qobiliyati sifatida qaraladi.

Bu masalani oʻrgangan V.M.Basova[11] fikricha, «kompetentsiya» dastlab XVI asrda Yevropa manbalarida, jumladan, yuridik adabiyotlarda shaxsning mulkka egalik qilish huquqini ifodalovchi atama sifatida uchraydi. XVII asr boshlariga kelib esa, huquqshunoslarning bilim, koʻnikma va malakasini baholovchi tushunchani ifodalash uchun muomalaga kiritilgan. XVIII asrda bu atama badiiy adabiyotda inson obrazini tasvirlash uchun qoʻllanila boshlagan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mazkur atamaga ham ijtimoiy, ham gumanitar fanlarga oid tushunchalarga taʼrif berish uchun murojaat qilingan.

Vebster lugʻatiga koʻra, «kompetentsiya» tushunchasi 1596-yili paydo boʻlgan. Devid Makklelland[12] «Test-tekshiruv: kompetentsiya va aql-idrok» maqolasini biznesda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning boshlangʻich nuqtasi deb hisoblash mumkin. Ushbu maqolada muallif shaxs qobiliyatini va uning aqliy salohiyatini aniqlovchi testlar insonning kelgusidagi muvaffaqiyatini belgilab bera olmasligini va bu ishlarni amalga oshirishda boshqacha yondashuv ishlab chiqishni tavsiya qiladi. Aqliy salohiyatni baholovchi testlar respondentning haqiqiy hayotdagi muvaffaqiyatini toʻliq bashorat qila olmaydi. Shu bois olimlarda ushbu jarayonni amalda baholay oladigan yangicha yondashuvni ishlab chiqishga ehtiyoj paydo boʻladi. Bundan tashqari, 286 ta tahlil umumlashtirilib, kompetensiyani tadqiq qilish doirasida bir qancha muammolar oʻrganiladi. Devid Makklelland hamda S.Spenser[13] kompetentsiya tushunchasini ilk marotaba oʻrgangan olimlardandir.

N.Narziyeva[14] taʼriflashicha, inglizcha «competence» tushunchasi lugʻaviy jihatdan bevosita chuqur bilimga asoslangan qobiliyat, layoqatlilik darajasini anglatadi. Mazmunan esa «faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish»ni bildiradi. M.Vahobov[15] fikriga koʻra,

“kompetensiya” o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda amaliy qo‘llay olish layoqati demakdir. M.Hamdova[16] ta‘rifiga ko‘ra, “kompetensiya” atamasi lotincha “competere” - muvofiqlik, mutanosiblik demakdir. Chet tili so‘zlari lug‘atida kompetensiya kompetentlik doirasi, bilimga ega bo‘lgan masalalar doirasi sifatida qaraladi. Lug‘atlarda bu tushuncha “Yaxshi tushunadigan masalalar sohasi” va boshqaruv atamalarining izohli lug‘atida mansabdor kishining shaxsiy imkoniyatlari, uning ma‘lum bir doirani takomillashtirishda ishtirok etishiga imkon beradigan malaka (bilim, tajriba) deb tushuniladi. Ma‘lum bilim, ko‘nikmalar mavjudligi sababli, qarorlar qabul qilish yoki o‘zi uchun qaror qabul qilish.

E.F.Zeerning fikriga ko‘ra, maqsadlar sari ustuvor harakat, ta‘limni chuqur o‘rganish, bu sohada o‘zini namoyon etish, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z ovozigga ega bo‘lish, shaxsiy qarashlarini rivojlantirish kompetensiyaga asoslangan yondashuv hisoblanadi. Umuman olganda, tajriba muayyan ishlarni bexato amalga oshirish uchun tayanch vazifasini o‘taydi. Masalan, muloqotni o‘rganish uchun muloqotga kirishish zarur. Tajribani esa bir ishni tez-tez takrorlab turish orqali oshirib borish mumkin.

Kompetensiyaviy yondashuvni tadqiq qilish tobora ommalashib borayotganiga qaramay, “kompetentlik” va “kompetensiya”ning asosiy tushunchalari to‘g‘risida olimlar hali ham bir to‘xtamga kelgan emas.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, har ikki atamaning lug‘aviy ta‘riflari orasidagi farq juda oz. Buni ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan taklif qilingan ko‘plab ta‘riflarda sezish mumkin. Ba‘zi olimlar ularni sinonim sifatida ishlatadilar, boshqalari esa bu tushunchalarni turli asoslarga ko‘ra ajratadilar.

A.V.Xutorskiyning ta‘rifiga ko‘ra, kompetensiya, bu - mutaxassisning ta‘lim sohasidagi tayyorgarligi uchun tegishli ijtimoiy talab (me‘yor) bo‘lib, uning ma‘lum bir sohada yuqori pog‘onaga erishishi uchun zarur bo‘lgan faoliyat ekanligini nazarda tutadi. Ularning fikriga ko‘ra, kompetensiyadan farqli o‘laroq, kompetentlik, bu - sub‘yektning tegishli tajribaga ega bo‘lishi, shu jumladan, uning shaxsiy va biror-bir predmetga bo‘lgan munosabatining allaqachon shakllangan sifatleri majmui ekanligidir.

I.A.Zimnya[17] bu ikki tushunchani o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqib, tubdan ajratadi va asoslaydi. “Kompetentlik” tushunchasi kompetensiyaga qaraganda ancha kengroq. U kognitiv bilimlar bilan bir qatorda ilhom beruvchi, munosabat va tartibga soluvchi komponentlarni ham o‘z ichiga oladi. Kompetensiya, bu - “dastur” bo‘lib, uning asosida kompetentlik rivojlanadi. I.A. Zimnya ushbu tushunchalar mohiyatini qisqa va lo‘nda bayon etadi: “Kompetensiya - yangi shakllangan ichki, potensial, yashirin psixologik bilimlar, g‘oyalari, harakatlar dasturi, keyinchalik insonning muloqotida namoyon bo‘luvchi qadriyatlar va munosabatlar tizimidir. Kompetentlik – shaxsning ijtimoiy faolligida zarur bo‘lgan bilimga asoslangan, intellektual, shaxsiy fazilatlar yig‘indisi va ta‘lim-tarbiya jarayonining yakuniy natijasidir”. Inson va undagi shaxsiy fazilatlar rivojlanishini o‘rganuvchi akmeologiya fani doirasida kasbiy malakaning quyidagi xususiyatlari ko‘rsatib o‘tilgan:

- ✓ gnostik (kognitiv) - kerakli kasbiy bilimlarning mavjudligini aks ettiradi;
- ✓ tartibga soluvchi - sohaviy muammolarni hal qilish uchun mavjud kasbiy bilimlardan foydalanishga imkon beradi;
- ✓ refleksiv - yuqori turuvchilarning tan olinishi tufayli muayyan tarzda harakat qilish huquqini beradi;
- ✓ normativ - mehnat faoliyatiga oid vazifalarni aks ettiradi;
- ✓ kommunikativ - amaliy faoliyatni tashkillashtirish uchun munosabatlarni o‘rnatish imkoniyatini belgilaydi.

G.M.Kodjaspirova[18] “o‘qituvchi malakali o‘qituvchi bo‘lishi uchun muayyan pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishi kerak”, deb hisoblaydi.

Kasbiy kompetensiya muayyan faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini hamda munosabatlarini maxsus darajasidagi zaruriy bilimlarda aks ettiradi. Umuman kasbiy faoliyatda mutaxassislarning turli darajadagi munosabatlari bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi va talaba, ota-onalar va hamkasblar, shuningdek, ta‘lim muassasasi rahbariyati o‘rtasida yaxshi munosabatlar o‘rnatilishi kerak. Munosabatning bu turiga kommunikativ kompetensiya deyiladi. Pedagogik faoliyat muammolarini o‘rganayotgan olimlar kompetensiyani mansabdor shaxsning imkoniyatlari, uning malakasi (bilim va tajribasi) deb tushunadilar. Bu unga muayyan vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalar, orttirilgan tajribalar asosida yo‘l ko‘rsatish, ishtirok etish, muammolarni hal qilish imkonini beradi.

S.Salimova[19] ta‘rifiga ko‘ra, kompetensiya - insonning shaxsiy xususiyati, individning turli vazifalarni bajarishga tayyorligi bo‘lib, faoliyat davomida shakllanadi va shu faoliyatga bo‘lgan qadriyat-mazmun munosabatini shakllantiradi. Kompetensiya - ish beruvchi uchun tushunarli bo‘lgan va bitiruvchining kasbiy faoliyatini tavsiflovchi kategoriyadir va u OTMni bitirgandan keyin ish joyida amalga oshadi. Kompetensiyalarning quyidagi tarkibiy qismlari mavjud: “bilimlardan iborat qism” (akademik sohadagi bilimlar, bilish va tushunish qobiliyati); “qadriyatlardan iborat qism” (shaxsning qadriyatlari va kasbiy vazifalarni bajarishga motivatsiyasi); “faoliyatdan iborat qism” (bilimlarni muayyan vaziyatga nisbatan amaliy va tezkor qo‘llash).

A.Verbitskiy va O.Larionova[20] “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalarini ajratish uchun professional faoliyat sifatini belgilaydigan shartlarning ob‘yektivligi va sub‘yektivligini asos sifatida tanlashni taklif qiladilar. Ular ob‘yektiv shartlarni “kompetensiya” deb atashadi va qonunlar, qoidalar, farmonlar, buyruqlar, ko‘rsatmalar kabi rasmiy hujjatlarda aks ettirilgan xodimning faoliyat sohasi uning huquqlari, burchlari va majburiyatlari bilan mukammalligini tasdiqlaydilar.



Sub'ektiv shartlarni "kompetentlik" deb nomlash barobarida unga professional motivlar, insoniy fazilatlar, shaxsning psixofiziologik xususiyatlari, qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalarini birlashtiruvchi omil sifatida qaraydilar.

Yuqorida ta'kidlagan bir qancha olimlarning fikrlari, yondashuv va qarashlariga tayanib, ular asosida "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining mohiyatini, o'ziga xos jihatlarni quyidagicha izohlaymiz (1 -jadvalga qarang).

1-jadval.

№	Kompetentlik	Kompetensiya
1.	xodimning shaxsiy xususiyatlari	faoliyat xususiyatlari
2.	faoliyatda zarur bo'lgan shaxsiy xususiyatlar	muayyan faoliyat doirasida shaxsning vakolatlari
3.	shaxs faoliyatining uni tartibga soluvchi talablarga muvofiqlik darajasi	faoliyat uchun belgilangan umumiy talab (me'yor)
4.	shaxsiy faoliyatga tayyorgarlik	faoliyatning me'yoriy jihatdan belgilangan tarkibi
5.	faoliyatga tayyorgarlik natijasi	faoliyatga tayyorgarlik mazmuni
6.	faoliyatda shaxsning imkoniyatlarini haqiqiy amalga oshirish	faoliyatdagi shaxsiy imkoniyatlar
7.	sub'yektiv	ob'yektiv

I.A. Zimnya kompetentlikning tarkibiy tuzilishini quyidagilarga ajratadi: a) bilim va ko'nikmalardan ko'ra kengroq va ularni o'z ichiga oladi; b) xulq -atvorning namoyon bo'lishini emotsional tartibga solishni o'z ichiga oladi; v) mazmuni uni amalga oshirish sub'yekti uchun ahamiyatli; d) shaxsning faolligi, xulq - atvori, bilim, ko'nikma va malakasining faol namoyon bo'lishi, ularni har qanday vaziyatda amalga oshirish imkoniyati sifatida doimiy tayyorligi bilan tavsiflanadi.

A.V.Xutorskoy bir so'z bilan aytganda, kompetensiya tarkibida bilim, ko'nikma, malaka faoliyatini bajarish usullari, ularni amalda qo'llash tajribasi, samarali qaror qabul qilish, oqilona harakat qilish qobiliyatini ta'minlaydigan fikrlash xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Uning asosiy mezonini ob'yektlar va jarayonlarning muayyan doirasiga nisbatan o'rnatilgan va ularga nisbatan samarali harakat qilish zaruriyati hisoblanadi.

"Kompetentsiya - bu ta'lim orqali olingan bilimlarga, tajribaga, qadriyatlarga, niyatlarga asoslangan umumiy qobiliyatdir. Kompetentsiyaviy bilim yoki ko'nikmaga tushmaydi; kompetentlik - bu olim yoki o'qimishli odam bo'lishni anglatmaydi"[21]. Kompetentsiya va ko'nikma o'rtasidagi farqni ajratish kerak. Ko'nikma - bu muayyan vaziyatda harakat, kompetentsiya, xatti-harakatlar, ko'nikmalarning kuzatuvlaridan o'rganilishi mumkin bo'lgan xarakteristik xususiyatdir. Shunday qilib, ko'nikmalar amalda kompetentsiya sifatida namoyon bo'ladi. Kompetentsiya mahorat, harakatni kuchaytiradi. Kompetentsiya ongli faoliyat natijasida shakllanadi.

Agar mutaxassisning dastlabki malakasi faqat ish o'rinlariga muvofiqligi va tor axborotni egallashni nazarda tutsa, "kompetentlik" nafaqat umumiy turdagi, balki, xususan keng sohada bilimlarni o'zlashtirishni talab qiladi[22]. Mutaxassisning o'z ko'nikmalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda tayyorgarligi va qobiliyatligi, o'zining faoliyati samaradorligi va sifatini yaxshilashni nazarda tutadi.

M.Qodirov[23] fikrlariga ko'ra, nazariy jihatidan kompetensiya - shaxsning muayyan sohada samarali ishlashi uchun zarur va o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan turli layoqatlari va xususiyatlari yig'indisidir. Kompetensiya natijadorlikni ta'minlaydigan algoritmnin inson imkoniyatlari orqali namoyon bo'lishidir. Kompetensiya - insonning mutaxassis sifatidagi maqsadga yo'naltirilgan va uning imkoniyatlarini to'la namoyon etadigan harakatlari, faoliyatidir. Umuman olganda, kompetensiya mavjud bilim, malaka va ko'nikmalarni amalda qo'llashdir, yetishmayotgan bilimlarni ta'minlash qobiliyati, o'z imkoniyatlarini namoyon etish bilan xarakterlanadigan zarur bilim, malaka, ko'nikmalarning hosilasidir.

Shunday qilib, kompetentsiya mavjud bilim, malaka va ko'nikmalarni amalda qo'llashdir, yetishmayotgan bilimlarni ta'minlash qobiliyati, o'z imkoniyatlarini namoyon etish bilan xarakterlanadigan zarur bilim, malaka, ko'nikmalarning hosilasi bo'lib, bilimlardan farqli o'laroq, kompetentsiyalar amaliy vazifani amalga oshirish imkoniyatlariga to'g'ri keladi va eng yaxshi natajaga erishishga yordam beradigan, zamon bilan hamnafas omillar yig'indisidir. Yuqorida olimlarning tadqiqot natijalari va tahlillaridan kelib chiqib, jamoat xavfsizligi bo'linmalari bo'lajak ofitserlarining o'q otish tayyorgarligi bo'yicha kasbiy kompetentligini takomillashtirish tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifini berdik: Jamoat xavfsizligi bo'linmalari bo'lajak ofitserlarining o'q otish tayyorgarligi bo'yicha kasbiy kompetentligini takomillashtirish bu - bo'lajak ofitserlarining o'q otish tayyorgarligi fani bo'yicha kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan immersiv bilimlar, qobiliyat, mahorat, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni amaliyotda yuqori darajada qo'llay olishi.

Binobarin, bo'lajak ofitserlar o'zlarining kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida kompetentli mutaxassis bo'lishlari bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

#### Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – 16.12.2016 yil.
2. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. – М.: «Академия», 2013.

3. Сорокина Т.М. Развитие профессиональной компетенции будущего учителя средствами интегрированного учебного содержания. // Начальная школа. – 2004. – №2. – С. 110-114.
4. Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога. // Педагогика. – 2003. – №10. – С. 51-55.
5. Лукьянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя. // Педагогика. – 2001. – №10. – С. 56-61.
6. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы. // “Народное образование” журналы. – 2003. – № 2. – С. 58-64.
7. Muslimov N.A., Усмонбоева М., Мирсолиева М. “Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Т.: 2016. – 147 б.
8. N.A.Muslimov Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirish / Monografiya.-T.: 2013-128b.
9. J.Raven (1984). Competence in modern society: Its Identification, Development and Release. –UK.P.220.
10. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы. // “Народное образование” журналы. – 2003. – № 2. – С. 58-64.
11. Басова В.М. Формирование социальной компетентности сельских школьников. – 2004 .
12. D.Macclelland. Testing for competence rather than four intelligence, American Psychologist, 28, 1-14.
13. С.Спенсер. Компетенции на работе.2005. – 384 с.
14. N.Narziyeva. Communicative competence as a pedagogical model in the classrooms, Academicia-An international Multidisciplinary Research journal, volume 10, Issue 6, June 2020 (78-81).
15. M.Vahobov. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangandavlat ta’lim standartlarini joriy etish – zamonaviy ta’lim paradigmasi sifatida. – 2016. – 8 b.
16. Развитие профессиональной компетентности руководителей дошкольных образовательных учреждений.. – 2019. – 6 с
17. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образования сегодня. 2003. №8.
18. Коджаспирова Г.М.. Педагогика. Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: “Гардарика”, 2004.–528 с.
19. S.Salimova. Ta’lim natijalarini baholashga kompetentli yondashuv mohiyati // Центр научных публикации. (buxdu.uz) – 2021. – Т. 5. - №5.
20. Вербцкий А.А, Ларионова О.Г. Личностный и компетентностный подходы и образовании проблемы интеграции. 2009. – 336 с.
21. Профессиональная педагогика: категории, понятия, дефиниции [Текст]: сб. науч. тр. Вып. 4 / Федер. агентство по образованию; Рос. гос. проф.- пед. ун-т ; Рос. акад. образования, Ур. отд-ние , 2006. - 571 с
22. Daminov O.O. “Game completeness as the process of professional competition on the professional education teacher”. International Journal of Advanced Science and Technology, Vol. 28, no. 20, Dec. 2019, pp. 890-896, <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/2968>.
23. M.Qodirov. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2012.